



ARTICLE INFO

Received: 04th December 2022

Accepted: 14th December 2022

Online: 15th December 2022

KEY WORDS

Ta'lim, tarbiya, pedagogik texnologiya, tashxis, qonun, o'yin, didaktik

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sabablari quyidagilardir. Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Muxidinova Sanobarxon Azizovna

300- maktabning O'zbek tili o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7444845>

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek tili darslarida ta'limiy va didaktik o'yinlardan foydalanish samarasi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Til o'rganish jarayoni, avvalo, jonli muloqotni taqozo etadi. Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalarini yangi pedagogik texnologiyalar va an'anaviy metodlar bilan uyg'unlashtirgan holda tatbiq etish yuqori samara beib kelmoqda.

Davlat tilini o'qitishda dars jarayonlarida quyidagi didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

«So'z top» o'yini. Ushbu metodni 2–3-sinflarda darsning kirish qismida avvalgi darsni mustahkamlash maqsadida yoki lug'at ustida ishlash maqsadida o'tkazish mumkin. O'qituvchi birona so'z aytadi, o'quvchilar esa davom ettiradilar. O'yin



qoidasiga ko'ra o'qituvchi boshlagan so'z qaysi harfda tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni aytishi kerak. Kitob-bog'cha-ayiq-qush. Bunday ish turini biror mavzuga oid so'zlar bo'yicha ham o'tkazish mumkin. O'quvchilar navbatma-navbat bir soha yoki bir mavzu guruhiga oid so'zlarni topishlari lozim. Masalan: uy jihozlariga oid so'zlarni aytish topshirig'i berilsa, 1-o'quvchi: xontaxta, 2-o'quvchi: ko'rpacha, 3-o'quvchi: gilam, 4-o'quvchi: guldon va hokazo tarzida davom ettirib ketishi mumkin. Ushbu o'yinni o'simliklar, gullar, o'quv qurollari nomlari bo'yicha tashkil etish ham mumkin. Bunda ham tezda so'z topa olmagan o'quvchi o'yinni tark etadi, o'yin davomida oxirigacha qolgan ishtirokchilarga g'olib hisoblanadi.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 2-3- sinflarida «O'zbek tili» darslarida aynan shunday mavzular o'tiladi, shu bois bu ta'limiy o'yin o'tilgan mavzular va o'rganilgan so'zlarni o'quvchilar xotirasida mustahkamlashga juda katta yordam beradi. O'zbek tilini mukammal o'rganish uchun lug'at bilan ishlashga urg'u berish talab etiladi. Matn uchun berilgan lug'atlarni shunchaki o'qish emas, lug'atlarni o'qish va eslab qolish, eslab qolingan lug'atlarni takrorlash va yoddan zanjir usulida so'rash yoki aksincha lug'atlarni o'qish va eslab qolish, eslab qolganlarini yozish, berilgan lug'atlardan foydalanib so'z birikmalari tuzish kabi topshiriqlarni dars jarayonida muntazam qo'llab borish o'quvchilarning so'z boyligini boyishiga xizmat qiladi. Ko'p marta takrorlash orqali o'rganilgan nutq materiallari oson o'zlashtiriladi. O'quvchilarning grammatik materiallarni puxta va aniq tushunib olishlarida turli didaktik o'yinlar, ko'rsatmali vositalardan o'rinli foydalanish bunda darsning o'tilgan mavzuni mustahkamlash bosqichida darslikda berilmagan qisqa grammatik topshiriqlarini, viktorinalar, "Xotira mashqi", "Xatosini toping" usullarini qo'llash o'rganilgan leksik materiallarni mustahkamlash va yaxshi eslab qolishga

yordam beradi. Shuningdek, o'zbek tilini o'rganishda darslikda berilgan diologlarga tayanib qolmasdan, turli mavzularda o'quvchilar bir-birlari bilan diolog yaratishlari, suhbatdoshining o'zbek tilidagi nutqini eshitish, nutqning asosiy mazmunini tushunishga va tushunganini o'z ona tilida so'zlab bera olishga o'rgatib borish kerak.

«O'ylab top» o'yini 3-4 va undan yuqori sinf o'quvchilari bilan o'tkazilishi maqsadga muvofiq, chunki bu o'yin samarali natija berishi uchun o'quvchilar ko'p so'z bilishlari kerak bo'ladi. Mazkur o'yinda ma'lum bir kasbga oid so'zlar olinib, boshlovchi biron kasb egasiga taqlid qilib harakat qiladi, o'yin ishtirokchilari bu harakat qaysi kasbga oid so'zni ifodalashini topishlari kerak. Bekitilgan so'z kartochkaga yozilgan bo'lib, so'zni to'g'ri topgan o'quvchiga ko'rsatiladi. O'yinda javobni to'g'ri topgan o'quvchilar g'olib bo'ladi.

«Poyezd» metodi. Poyezd vagonlari ko'rinishidagi alohida qog'ozlarga bitta gapning har bir so'zi alohida-alohida yoziladi va aralashtirib yuboriladi. O'quvchilarning vazifasi vagonlarni shunday terishi kerakki, natijada to'g'ri gap hosil bo'lsin. Masalan: ikkinchi, bizning, qavatda, joylashgan, sinfimiz. To'g'ri javob: Bizning sinfimiz ikkinchi qavatda joylashgan.

«Eslab qol» o'yini. O'quvchilarga kasseta orqali kichik bir matn o'qib eshittiriladi. O'quvchilar tayanch so'zlarni yozib boradilar, so'ngra ushbu so'zlar yordamida tinglangan matnni tiklaydilar. Kimning matni to'liq va to'g'ri tuzilsa, o'sha yuqori bahoga sazovor bo'ladi. Bu o'yin o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

«Unlilar» o'yini. Bu nomni istalgan mavzu asosida o'zgartirish mumkin. Katta ekran orqali tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ixtiyoriy matn namoyish qilinib, undan matndagi unlilar miqdorini imkon qadar tezroq va to'liqroq aniqlash



topshiriladi. Chunki bu mavzu nisbatan sodda hisoblanadi.

«O'zing top» o'yini. Proyektor orqali o'tilgan mavzular asosida ixtiyoriy ertakdan biron tasvir ko'rsatilishi aytiladi. O'quvchilar (3 nafar) taklif qilinadi. O'quvchilar tasvirga teskari qaragan holda turadilar. Qolgan o'quvchilar ertak bilan bog'liq bittadan ma'lumot aytadilar. O'quvchilar bilim darajasiga ko'ra avval yoki keyin ertakning nomini aytishlari mumkin.

Umuman, ta'limiy o'yinlar ta'lim jarayonida, jumladan ona tili ta'limida katta ahamiyatga ega. O'yin texnologiyalar, testlar yoshlarning bilim darajasini,

mustaqil fikrlash qobiliyatini, aqliy rivojlanishini xolisona baholashni ta'minlovchi omildir. Shuningdek, test natijalari ta'lim jarayonidagi ahvol haqida ishonchli-ilmiy xulosalar chiqarishga katta imkoniyatlar yaratadi. Test o'quvchilar bilimini aniq va to'g'ri baholab beradi. Umuman, test savollaridagi javoblarga ilmiy tomondan yondoshish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va bilimlarini chuqurlashtiradi. Shu bilan birga test nazariyasini amaliyot bilan bog'lashga yordam beradi.

References:

1. Абдумажидов Ф. "Ўзбекистон Республикасининг давлат тили ҳақида"ги қонунига шарҳлар. – Тошкент: Адолат, 1999.
2. Ботиров О., Иброҳимова Ф. Ўзбек тилидан дастурлаштирилган топшириқлар. – Урганч, 1993.
3. Дарс самарадорлигини ошириш (илмий ва методик ишлар тўплами). – Наманган, 1996.
4. Jo'rayev N. Milliy istiqlol g'oyasi va tarixni anglash. // Jamiyat va boshqaruv, 2003, №2. –B. 5.
5. B. Tilda imkoniyat va voqelik mushtarakligi. – "Ma'rifat" gazetasi, 15.05.2013